PREEKLAMPSIYA XAVF OMILLARINI HISOBGA OLGAN HOLDA HOMILADORLIKNI OLIB BORISH

Xalilova Sh.O.
Ilmiy rahbar: ***Kamilova I.A****. t.f.d.*
Toshkent tibbiyot akadeiyasi,Toshkent,O'zbekiston

Dolzarbligi: Homiladorlar gipertenziv kasalligi sifatida tavsiflangan preeklampsiya onalar o'limining 1-5 %ini tashkil etadi. Preeklampsiya –onalar o'limining ikkinchi eng tarqalgan sababi bo'lib,yiliga taxminan 500 000 yangi tug'ilgan chaqaloqlarning va 62000-77000 onalarning o'limiga sabab bo'ladi. Preeklampsiyaning erta boshlanishi onalar va perinatal o'limga olib keluvchi asosiy omil hisoblanadi.Bundan tashqari preeklampsiya og'ir asoratlarga : jigar va buyrak yetishmovchiligi , nevrologik va gemotologik asoratlar, o'pka shishi ,HELLP sindromi kabi poliorgan yetishmovchiligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.
Shuning uchun preeklampsiyani erta aniqlash va tashxis qo'yish, davolash hamda oldini olish onaning va neonatal asoratlarning oldini olishda muhim hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: Xavf guruhiga kirgan homilador ayollarda preeklampsiyaning profilaktika natijalarini baholash.

Tadqiqot material va usullari: Tekshiruv materiallari 2023-2024-yil oralig'ida Toshkent tibbiyot akademiyasi Ayollarni sog'lomlashtirish markaziga murojaat qilib kelgan va anamnezida preeklamsiya xavf omillari mavjud bo'lgan 60 ta homilador ayol o'rganildi.

Natijalar va muhokama: Biz tadqiqotimizda preeklamsiyani oldini olish FIGO, 2019-yil bo'yicha Ayollarni sog'lomlashtirish markaziga murojaat qilib kelgan anamnezida yuqori va o'rta xavf guruhi mavjud bo'lgan 60ta homilador ayollarni 2 guruhga ajratdik : ulardan 30tasi homiladorlikning 12 xaftasidan boshlab 36 xaftasigacha atsetilsaletsil kislotasini 150mgdan kuniga 1marta kechqurun og'iz orqali qabul qilgan va 30tasi esa qabul qilmagan. Tadqiqot natijasiga ko'ra anamnezida preeklamsiya xavf omillari mavjud bo'lgan 60 ta homilador ayolning o'rtacha yoshi 25 yoshni tashkil etdi va ularning 24 (40%)tasida surunkali buyrak kasalligi, 6(10%) tasida surunkali teriodit kasalligi aniqlandi. Hamda oldingi homiladorligida gestatsion gipertenziya o'tkazgan homilador ayollar 24(40%)ta va surunkali arterial giperteziya o'tkazgan homilador ayollar 6(10%), preeklampsiya o'tkazgan homilador ayollar 20(33%)tani tashkil etdi. Shu bilan birga bu homilador ayollarning o'rtacha sistolik arterial qon bosimi 135 mm.Hg .ustuniga diastolik arterial qon bosimi esa 92 mm.Hg. ustuniga tengligi aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra 30ta atsetilsaletsil kislotasini qabul qilgan homilador ayollarning 9(30%)tasida gestatsion gipertenziya va preeklampsiya 3(2%)tasida uchraganligi hamda 30ta atsetilsaletsil kislotasini qabul

qilmagan homilador ayollarning 18(60%)tasida gestatsion gipertenziya va preeklampsiya esa 15(50%)tasida uchraganligi aniqlandi.

Xulosa: Tadqiqot natijalariga ko'ra preeklampsiya xavf omillari mavjud homilador ayollarda atsetil salitsil kislotasini qabul qilmagan homilador ayollarda preeklampsiyani kelib chiqishi atsetil salitsil kislotasini qabul qilmagan homilador ayollarga nisbatan 5 marta (yengil preeklampsiya 4,5marta, og'ir preeklampsiya 6 marta) ko'p hamda gestatsion gipertenziya kelib chiqishi 2 marta ko'p farq qilishi aniqlandi . Bunga ko'ra hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri bo'lgan preeklampsiyani prognozlash muhim vazifa hisoblanadi.Preeklamsiyani oldini olmaslik ona va bola uchun ko'plab muammolarga sabab bo'ladi.

